

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

NISHONOVA MUATTARXON ALISHEROVNA

**TA'LIMiy PLATFORMA ASOSIDA TALABALARNING UNIVERSAL
O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASI**

13.00.06 –Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Nishonova Muattarxon Alisherovna

Ta’limiy platforma asosida talabalarning universal o‘quv faoliyatini tashkil etish metodikasi3

Нишонова Муаттархон Алишеровна

Методика организации универсальной учебной деятельности студентов на основе образовательной платформы.....23

Muattarkxon Alisherovna Nishonova

Methodology of organizing students’ universal learning activities using an educational platform.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

NISHONOVA MUATTARXON ALISHEROVNA

**TA'LIMiy PLATFORMA ASOSIDA TALABALARNING UNIVERSAL
O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASI**

13.00.06 –Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped10539 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.cspu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudova Dilfuza Meliyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sariyev Rustam Bobomuradovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Atamuratov Rasuljon Kadirjanovich
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "9" 06 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (490 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41;

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "26" 05 kuni tarqatildi.
(2026-yil "26" 05 dagi 20 raqamli reestr bayonnomasi).



F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengashi raisi,
p.f.d. (DSc), professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ta'lim tizimi raqamli shaklga o'tib, masofaviy va aralash ta'lim platformalari (Coursera, edX, Khan Academy) orqali o'quv resurslariga kirish imkoniyati kengaymoqda. Bu platformalar shaxsiylashtirilgan ta'lim muhitini yaratib, talabalarning universal o'quv faoliyatini rivojlantirish va ularni xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalash imkonini bermoqda. Ayniqsa, Finlandiyaning Opin.fi platformasi, Janubiy Koreyaning KAIST sun'iy intellekt tizimlari va Buyuk Britaniyaning Whatuni ilovasi talabalarga moslashuvchan ta'lim xizmatlari taqdim etish orqali ushbu jarayonda muhim rol o'ynamoqda. Bu esa ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlash, talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish va ularning kreativ hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'limiy platformalarni qo'llashning dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Dunyo miqyosida masofaviy ta'lim tizimlari (Zoom, Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams, Canvas) ta'lim jarayonining uzluksizligi va interaktivligini ta'minlaydigan innovatsion texnologik yechimlar sifatida shakllanmoqda. So'nggi yillarda, ayniqsa global pandemiya davrida, ushbu platformalarning ta'lim tizimidagi o'rni nafaqat qo'shimcha vosita, balki ta'lim jarayonining asosiy tashkiliy mexanizmlaridan biriga aylandi. Bu esa o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yangi shakllarini vujudga keltirish, ta'lim resurslariga teng huquqli kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda an'anaviy ta'lim metodlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'dirdi. Shuningdek, masofaviy platformalar ta'lim jarayonida vaqt va makon chegaralarini bartaraf etib, turli mintaqa va mamlakatlardagi talabalarning birgalikda ta'lim olishiga imkon yaratdi.

Mamlakatimizda "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi"¹ hamda "Raqamli ta'lim konsepsiyasi"² doirasida raqamli ta'limiy platformalarni joriy etish ta'lim tizimining zamonaviy talablariga mos ravishda yangilanishi va barqaror rivojlanishini belgilab bermoqda. Mazkur hujjatlar ta'limni raqamlashtirish orqali o'quv jarayonini yanada ochiq, shaffof va boshqariladigan tizimga aylantirish, ta'lim resurslaridan samarali foydalanish, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish hamda hududlar kesimida teng ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishni ko'zda tutadi. Shu asosda elektron platformalar masofaviy va aralash ta'limni yo'lga qo'yish, o'quv materiallarini tezkor yangilash, raqamli kontentni tizimli boshqarish hamda o'qituvchi–talaba o'rtasida uzluksiz muloqot va teskari aloqani ta'minlashning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Universal o'quv faoliyatini raqamli platformalar yordamida tashkil etish esa ta'lim jarayonini samarali boshqarish, o'quv faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish, o'zlashtirish natijalarini monitoring qilish hamda ma'lumotlar asosida tahliliy qarorlar qabul qilish imkonini kengaytiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, <http://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston–2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash to'g'risida"gi PF-6079-son farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, <http://lex.uz/ru/docs/-5030957>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston–2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT - industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2025-yil 28-apreldagi PQ-152-son “Ta’lim sifatini va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonlik olimlardan R.X.Djurayev, U.Sh.Begimqulov, N.A.Muslimov, M.Quronov, Sh.Mardonovlarning ilmiy ishlarida talabalar o‘quv faoliyatini tashkil etish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan; U.Sh.Begimqulov, A.A.Abduqodirov, R.J.Ishmuhamedov, F.M.Zokirova, M.Aripov, Sh.Pozilova, M.Lutfillayev, M.Fayziyeva, N.A.Kayumova, R.Atamuratov, O.A.Qo‘ysinov, D.M.Maxmudova, B.X.Xodjayev kabi olimlar ta’limda AKTdan foydalanish, raqamli resurslar orqali o‘quv jarayonini tashkil etish, bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligidan A.V.Xutorskoy tomonidan “universal o‘quv harakatlari” tushunchasi ilmiy muomalaga kiritilgan va bu tushuncha umumta’lim jarayonida o‘quvchining rivojlanish ko‘rsatkichi sifatida qaralgan. V.P.Bespalko, G.K.Selevko, M.V.Klarin kabi mutaxassislar ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslarini ishlab chiqishgan, jumladan, axborot texnologiyalarining ta’limdagi o‘rnini belgilashgan. Y.N.Yemelyanov, N.V.Makarova, V.A.Kozlov va boshqalar tomonidan elektron ta’lim, masofaviy ta’lim va platformalar asosidagi o‘quv muhiti shakllantirish masalalariga oid ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Xorij olimlaridan Devid Pol Osobel, Lorin Anderson va Devid Krathvollar ta'limiy platformalarni kognitiv psixologiya va taksonomiyalar asosida ishlab chiqish nazariyasini; J.Piajet, Jerom Bruner klassik psixolog va pedagoglar inson tafakkuri, faoliyati va rivojlanishi nuqtayi nazaridan nazariy jihatdan asoslagan.

Biroq, tahlil natijalariga ko'ra, universal o'quv faoliyatining barcha komponentlarini (motivatsion, kognitiv, amaliy, refleksiv) yagona raqamli platforma asosida shakllantirish bo'yicha kompleks metodika to'liq ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Andijon davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishi bo'lgan "Sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish" nomli asosiy ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta'limiy platforma asosida talabalarning universal o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

universal o'quv faoliyatini tashkil etishda ta'limiy platformalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

talabalarning universal o'quv faoliyatini tashkil etishning integrallashgan modelini takomillashtirish;

universal o'quv faoliyatni tashkil etishda ta'limiy platformalardan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish;

talabalarning universal o'quv faoliyatini tashkil etishning elektron-metodik ta'minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti ta'limiy platformalar vositasida talabalarning universal o'quv faoliyatini tashkil etish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Andijon davlat pedagogika instituti hamda Qo'qon davlat universitetlaridan jami 314 nafar talaba-respondentlar ishtirok etdilar.

Tadqiqot predmetini ta'limiy platformalardan foydalangan holda talabalarning universal o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakli, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qiyosiy tahlil, o'quv reja, o'quv dasturi kabi hujjatlarni o'rganish; sotsiologik-pedagogik (kuzatish, suhbat, so'rovnoma); pedagogik tajriba-sinov; monitoring; natijalarni matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

universal o'quv faoliyatini tashkil etishda ta'limiy platformalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari talabalarning regulyativ personal-akademik trayektoriyasini ta'minlash jarayoniga vizual-pedagogik dizayn tamoyilini kollaboratsiya ustuvorligida kiritish orqali aniqlashtirilgan;

ta'limda universal o'quv faoliyatni tashkil etishning integrallashgan modeli elektron resurslarda shaxsiy o'zlashtirish tezligi va intellektual potensial chegarasiga

mos akademik buyruqlarning talabalar tomonidan tanlanishi va topshiriqlar bajarilishini kasbga doir tahlil va qarorlar sifati bo'yicha avtomatik baholashni differensial qaydlarda maqbullashtirish asosida takomillashtirilgan;

universal o'quv faoliyatni tashkil etishda ta'limiy platformalardan foydalanish texnologiyalari geymikatsion va motivatsion topshiriqlarni kasbiy-pedagogik raqamli kontentda yakka va frontal ish shakllariga avtomatik moslashuvini qisqa intervalli monitoringda ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

universal o'quv faoliyatini tashkil etishning elektron-metodik ta'minoti bulutli xizmatlar, sun'iy intellekt elementlari, analitik modullar integratsiyalangan raqamli kontentni mustaqil ta'limda talabalarning konstruktivistik faoliyatini refleksiv va akademik-adaptatsiyaga yo'naltirish hamda natijalar sintezini nazorat topshiriqlariga avtorizatsiya qilish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini real vaqtda monitoring qilib, o'qituvchilarga har bir talabaning muvaffaqiyatini baholash va qo'llab-quvvatlash imkonini beradigan "Mustaqil ta'lim" platformasi <https://mi-mt.uz> ishlab chiqilgan;

universal o'quv faoliyatining barcha komponentlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Informatika o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish va fanlararo integratsiyani ta'minlovchi vosita sifatida "Amaliy matematik dasturiy paketlar" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan;

ishlab chiqilgan gibrid model asosida universal o'quv faoliyatini tashkil etishda interfaol ta'lim vositalarini integratsiyalash, o'quv kontentini tizimlashtirish, o'quv harakatlarini faollashtirish hamda individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash mexanizmi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuv, usullarning ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi va ularning matematik-statistik tahlili, takliflarning amaliyotga joriy etilganligi va o'rnatilgan tartibda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, dissertatsiya mazmunining xorijiy hamda milliy nashrlarda chop etilgan maqolalar, ilmiy anjumanlardagi ma'ruzalar bilan ommalashganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarning universal o'quv faoliyatini samarali tashkil etuvchi ta'limiy platformalarni yaratishga yo'naltirilgan avtomatlashtirilgan-didaktik resurslarni modellashtirish jarayonini ilmiy asosda ishlab chiqish bilan izohlanadi. Mazkur jarayon regulativ va kognitiv faoliyat turlarini real vaqt rejimida tahlil qilish, shaxsiy ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish hamda adaptiv resurslarni taklif etish imkonini beruvchi pedagogik dizaynning vizuallik, interaktivlik va adaptivlik tamoyillarini uyg'unlashtirish orqali aniqlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan universal ta'lim modeli talabalarda mustaqil o'rganish, refleksiv fikrlash, ijodiy yondashuv va shaxsiy rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan nazariy-metodik konsepsiya sifatida asoslab berildi. Tadqiqot natijalari raqamli pedagogika, konstruktivistik ta'lim va

kompetensiyaviy yondashuv tamoyillarining o‘zaro integratsiyasini chuqurlashtirib, informatika ta’limi nazariyasi va metodikasining ilmiy-amaliy rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, mazkur ilmiy izlanish natijalarining amaliyotga keng joriy etilganligi bilan belgilanadi. Jumladan, universal o‘quv faoliyatini tashkil etishga oid model, metodik tavsiyalar hamda didaktik ta’minot “Informatika o‘qitish metodikasi”, “Amaliy matematik dasturiy paketlar” nomli o‘quv qo‘llanmalari va “Mustaqil ta’lim” (<https://mi-mt.uz>) platformasi mazmuniga singdirilgan. Natijada, platforma o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, talabalarining faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish, teskari aloqa o‘rnatish va individual o‘quv trayektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi. Ushbu tizim mustaqil ta’limni tizimli va shaxsiylashtirilgan tarzda tashkil etish imkonini yaratib, talabalarda raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda oliy ta’limda raqamli transformatsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Ta’limiy platforma asosida talabalarining universal o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

universal o‘quv faoliyatini tashkil etishda ta’limiy platformalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari talabalarining regulativ personal-akademik trayektoriyasini ta’minlash jarayoniga vizual-pedagogik dizayn tamoyilini kollaboratsiya ustuvorligida kiritishga doir amaliy taklif va tavsiyalar Matematika va informatika yo‘nalishi talabalari uchun “Informatika o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug‘iga asosan berilgan 621303-sonli ruxsatnoma). Natijada, Informatika o‘qitish metodikasini o‘qitish jarayonida interaktiv mashg‘ulotlarni tashkil etish samaradorligini oshirishga erishilgan;

ta’limda universal o‘quv faoliyatni tashkil etishning integrallashgan modeli elektron resurslarda shaxsiy o‘zlashtirish tezligi va intellektual potensial chegarasiga mos akademik buyruqlarning talabalar tomonidan tanlanishi va topshiriqlar bajarilishini kasbga doir tahlil va qarorlar sifati bo‘yicha avtomatik baholashni differensial qaydlarda maqbullashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy universitetida 2024-2025-yillar davomida bajarilgan IL-7823051524 – sonli “Paratranslator: parallel korpusga asoslangan kontestologik elektron tarjima lug‘at platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 29-oktyabrda berilgan №04/11-25769-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarining platformadagi faolligi, topshiriqlarni bajarish dinamikasi va ijodiy yondashuvlarini tahlil qilish imkoni oshgan;

universal o‘quv faoliyatni tashkil etishda ta’limiy platformalardan foydalanish texnologiyalari geymikatsion va motivatsion topshiriqlarni kasbiy-pedagogik raqamli kontentda yakka va frontal ish shakllariga avtomatik moslashuvini qisqa intervalli monitoringda ta’minlashga oid taklif va tavsiyalar “Amaliy matematik

dasturiy paketlar” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug‘iga asosan berilgan 100884-sonli ruxsatnoma). Natijada, oliy ta’limda talabalarning mustaqil o‘rganish, izlanish va refleksiya faoliyatini samarali tashkil etish hamda ularning kognitiv faolligi va motivatsiyasini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 120 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘yekti va predmeti tavsiflangan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ta’lim platformalari orqali universal o‘quv faoliyatini tashkil etishning nazariy-pedagogik tamoyillari”** nomli birinchi bobida universal o‘quv faoliyatining tarkibiy tuzilmasi, elektron o‘quv muhitida uning shakllanish omillari hamda informatika fani misolida kompetensiyaviy model asoslari yoritilgan. Zamonaviy pedagogika fanining eng muhim yutuqlaridan biri – bu ta’lim jarayonini talabaning shaxsiy rivojlanishi bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasining amaliy ifodasiga aylangan “universal o‘quv faoliyati” konsepsiyasidir. Mazkur tushuncha XX asr oxiri – XXI asr boshlarida jahon pedagogikasida shakllanib, ta’lim natijalarini baholashning yangi paradigmasini yaratdi. Uning mohiyati shundaki, ta’limning asosiy natijasi sifatida o‘quvchining o‘zlashtirgan bilimlari hajmi emas, balki uning mustaqil bilim olish, o‘zini rivojlantirish va hayotiy muammolarni hal qilish qobiliyati e‘tirof etiladi.

“Universal o‘quv faoliyati” tushunchasi L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, V.V.Davidov, P.Ya.Galperinlarning faoliyat nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘quv faoliyati nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish vositasi, balki shaxsning psixik rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Keyinchalik A.G.Asmolov, G.V.Burmenskaya, I.A.Volodarskaya va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan “Universal o‘quv faoliyati” konsepsiyasi ta’lim natijalarini baholashning yetakchi mezon sifatida e‘tirof etildi. A.G.Asmolov ta’rifiga ko‘ra,

universal o'quv faoliyati – bu shaxsning o'zini rivojlantirish va takomillashtirish orqali yangi ijtimoiy tajribani ongli hamda faol egallash qobiliyatidir

Yuqoridagi nazariy-metodologik asoslarga tayangan holda, “universal o'quv faoliyati” tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi berildi: “Universal o'quv faoliyati” – bu o'quvchining yangi ijtimoiy tajribani ongli ravishda va faol o'zlashtirishga qodirligini ta'minlovchi, uning o'z-o'zini rivojlantirishi va takomillashtirishga intilishini ifodalovchi, shaxsiy, reguliyativ, kognitiv va kommunikativ harakatlar majmuidir.

Universal o'quv faoliyati tarkibiy tuzilmasi to'rtta asosiy blokdan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liqlikda talabaning yaxlit rivojlanishini ta'minlaydi. Shaxsiy universal o'quv faoliyati – o'quvchining o'zligini anglashi, shaxsiy va kasbiy o'z taqdirini belgilashi, ma'naviy-axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishi, ta'limga nisbatan motivatsiya va qadriyatli munosabatni qamrab oladi. Reguliyativ universal o'quv faoliyati – maqsad qo'yish, rejalashtirish, nazorat, korreksiya, baholash va o'z-o'zini boshqarish kabi o'z faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Kognitiv universal o'quv faoliyati – axborot bilan ishlash, tahlil, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rnatish, muammolarni hal qilish kabi bilish jarayonlarini ifodalaydi. Kommunikativ universal o'quv faoliyati – hamkorlikni rejalashtirish, savol berish, nizolarni hal qilish, o'z fikrini aniq ifodalash, dialogik va monologik nutqni egallash ko'nikmalarini qamrab oladi.

Shuningdek, ta'lim platformalari bilan axborot-ta'lim resurslari integratsiyasi asosida universal o'quv faoliyatini shakllantirishning metodik asoslari ilmiy asoslab berilgan. Bu jarayonda Moodle, Google Classroom kabi platformalarning imkoniyatlari, ularning interaktiv elementlari (testlar, forumlar, viktorinalar, loyihalar) orqali talabalarning barcha turdagi universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari ochib berilgan.

XXI asr ta'lim tizimining eng muhim xususiyati – uning raqamli transformatsiyasidir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan, ta'limiy platformalardan foydalanmasdan tasavvur etish qiyin. Ta'limiy platformalar nafaqat o'quv materiallarini saqlash va yetkazib berish vositasi, balki o'qitishning yangi shakl, metod va texnologiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi murakkab, ko'p funksiyali raqamli muhitdir.

Ta'limiy platformalarning rivojlanish tarixi qisqa, ammo juda jadal bo'ldi. 1990-yillarda paydo bo'lgan oddiy masofaviy ta'lim tizimlari (masalan, WebCT, Blackboard) asta-sekin murakkab, intellektual, moslashuvchan ta'lim ekotizimlariga aylandi. Coursera, edX, Udacity, Khan Academy kabi OMM (OpenMassive Online Courses – Ommaviy ochiq onlayn kurslar) platformalari millionlab foydalanuvchilarni qamrab oldi. Moodle, Canvas, Google Classroom kabi LMS (Learning Management System – Ta'limni boshqarish tizimlari) esa ta'lim muassasalarining kundalik faoliyatining ajralmas qismiga aylandi.

Ta'limiy platforma – bu ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari (talabalar, o'qituvchilar, ma'muriyat, ota-onalar) o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi, o'quv materiallarini yaratish, saqlash, yetkazib berish va nazorat qilish imkonini beruvchi, shuningdek, ta'lim natijalarini monitoring qilish va baholash

funksiyalarini bajaruvchi yaxlit dasturiy-apparat majmuasidir. Ta'limiy platformalar funksional vazifasiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. LMS (Learning Management System) – ta'limni boshqarish tizimlari o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va monitoring qilish imkonini beradi. Moodle, Canvas, Google Classroom kabilar ushbu turga misol bo'ladi. LCMS (Learning Content Management System) esa o'quv kontentini yaratish, saqlash va boshqarishga ixtisoslashgan. Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) platformalari Coursera, edX, Udemiy keng omma uchun mo'ljallangan kurslarni taklif etadi.

Mulkiy mansubligiga ko'ra platformalar ochiq kodli (Moodle, Open edX) va xususiy (proprietary) turlarga (Blackboard, Canvas) ajratiladi. Foydalanish shakliga ko'ra bulutli platformalar (Google Classroom) va mahalliy serverlarda o'rnatiladigan platformalar mavjud. O'zbekiston ta'lim tizimida "ZiyoNET" milliy ta'lim tarmog'i, HEMIS (Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish tizimi) va "eMaktab" kabi platformalar faol qo'llanilmoqda.

AQSH va Yevropa mamlakatlarida "XXI asr ko'nikmalari" (21st century skills) konsepsiyasi keng tarqalgan bo'lib, u universal o'quv faoliyati bilan mazmunan uyg'unlashadi. J.Bellanka va R.Brandt tomonidan ishlab chiqilgan "4K" modeli (kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya) bugungi kunda xalqaro ta'lim standartlarida keng qo'llaniladi. Finlyandiya ta'lim tizimida "fenomen asosidagi o'qitish" (phenomenon-based learning) orqali o'quvchilarning universal kompetensiyalarini rivojlantirish amaliyoti joriy etilgan.

Rossiya pedagogika maktabida universal o'quv faoliyati muammosi mukammal ishlab chiqilgan yo'nalishlardan biridir. A.G.Asmolov, G.V.Burmenskaya, I.A.Volodarskaya kabi olimlar tomonidan universal o'quv faoliyatining nazariy-metodologik asoslari yaratilgan. Xususan, A.G.Asmolov universal o'quv faoliyatini rivojlantirish uchun ta'lim muhitini "o'quv faoliyati tizimi" sifatida modellashtirishni taklif etadi. U quyidagi formula asosidagi yondashuvni ilgari suradi:

$$\text{Universal o'quv faoliyati} = \text{o'quv harakatlari} + \text{mazmun (kontent)} + \text{interaktiv vositalar}.$$

Mazkur model ta'lim jarayonida o'quvchilarda universal o'quv faoliyatini shakllantirishning asosiy komponentlarini belgilaydi. O'quv harakatlari (maqsad qo'yish, rejalashtirish, nazorat, baholash) faoliyatning protsessual tomonini, mazmun (kontent) bilimlarning mazmuniy asosini, interaktiv vositalar esa o'quvchining faol ishtirokini ta'minlovchi mexanizmlarni ifodalaydi.

O'zbekistonlik olimlardan R.X.Djurayev, U.Sh.Begimqulov, N.A.Muslimov, M.Quronov, Sh.Mardonov va boshqalarning ilmiy ishlarida talabalar o'quv faoliyatini tashkil etish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. Jumladan, U.Sh.Begimqulovning tadqiqotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etishning didaktik asoslari yoritilgan. R.X.Djurayev tomonidan esa kasbiy ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan. N.A.Muslimovning ilmiy ishlarida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularda mustaqil ta'lim

olish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. M.Quronovning pedagogik tadqiqotlarida esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodlari yoritilgan.

A.G.Asmolov konsepsiyasi tahlilidan kelib chiqib, biz tadqiqotimiz maqsadlariga muvofiq quyidagi gibridd modelni taklif etamiz:

Platforma + Interfaollik + Kontent + O'quv harakatlari = Universal ta'lim muhiti.

Ushbu model universal o'quv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrallashgan raqamli ekotizimni ifodalaydi. Modelning har bir komponenti o'ziga xos funksional yuklamaga ega:

platforma – bu texnologik poydevor bo'lib, 24/7 ishlash, masshtablanuvchanlik, moslashuvchanlik va axborot xavfsizligini ta'minlaydi. Platforma ta'lim jarayonining uzluksizligi va barqarorligini kafolatlaydi. Zamonaviy LMS (Moodle, Canvas, Google Classroom) va OMM platformalari (Coursera, edX) ushbu vazifani bajaradi;

kontent – ta'lim mazmuni va intellektual resurslarni o'z ichiga oladi; u matnli, vizual va interaktiv materiallar orqali bilimni mustahkamlaydi. Uning samaradorligi yangilanuvchanlik va didaktik moslashuvchanlik darajasiga bog'liq. Kontent nafaqat bilim manbai, balki talabalarning kognitiv faoliyatini yo'naltiruvchi vosita hamdir;

interfaollik – o'quvchini faol subyektga aylantiradi; real vaqt baholash, muammoli vaziyatlar, hamkorlik asosida o'rganish va teskari aloqa mexanizmlarini ta'minlaydi. Interfaollik talabaning passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylanishini ta'minlaydi. Gamifikatsiya, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar interfaollikni oshiruvchi vositalardir;

o'quv harakatlari – kognitiv, kommunikativ va refleksiv faoliyatlarni o'z ichiga olib, o'quv jarayonini tizimli va uzluksiz qiladi. Maqsad qo'yish, rejalashtirish, axborot izlash, tahlil qilish, baholash va o'z-o'zini nazorat qilish kabi harakatlar UO'Fning asosini tashkil etadi.

To'rt komponent bir-birini to'ldirgan holda yagona tizimda ishlaydi. Platforma – kontent va interfaol mexanizmlarni qo'llab-quvvatlaydi, kontent – ta'lim mazmunini boyitadi, interfaollik – o'zlashtirish samaradorligini oshiradi, o'quv harakatlari esa – barcha jarayonni faollik va refleksiya bilan bog'laydi. Shu tariqa, mazkur gibridd model zamonaviy raqamli ta'lim muhitining uzviy va tizimli asosini tashkil etadi. Platformasiz – kontentni taqdim etishning ishonchli tizimi bo'lmaydi; kontentsiz – platforma va interfaollik mazmunsiz qoladi; interfaolliksiz – o'qitish jarayoni bir yoqlama va sust kechadi; o'quv harakatlarisiz esa ta'lim faoliyati maqsadsiz va samarasiz bo'ladi.

Taklif etilgan model A.G.Asmolovning universal o'quv faoliyati nazariyasini raqamli platforma orqali avtomatlashtirish asosida yangi pedagogik paradigmaga asos bo'ladi. Bunda kognitiv va universal o'quv faoliyatlari real vaqt rejimida tahlil qilinib, shaxsiy ta'lim trayektoriyasi avtomatik shakllantiriladi. Model quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: talabalarning universal o'quv faoliyati darajasini kompleks baholash, har bir talaba uchun individuallashtirilgan ta'lim yo'nalishini

shakllantirish, o'quv jarayonining barcha bosqichlarida teskari aloqani ta'minlash, talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tizimli tashkil etish, o'qituvchilarga universal o'quv faoliyati diagnostikasi va rivojlantirish bo'yicha metodik yordam ko'rsatish. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, universal o'quv faoliyatini tashkil etish muammosi zamonaviy pedagogikaning markaziy yo'nalishlaridan biridir. A.G.Asmolov konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan "Platforma + Interfaollik + Kontent + O'quv harakatlari = Universal ta'lim muhiti" gibrid modeli universal o'quv faoliyatini raqamli ta'lim platformalari orqali samarali tashkil etish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **"Universal o'quv faoliyatini raqamli ta'lim vositalari orqali tashkil etish metodikasi"** deb nomlangan ikkinchi bobi "Mustaqil ta'lim" platformasining didaktik samaradorligi pedagogik tizim doirasida bo'lajak Informatika o'qituvchilari uchun universal ta'lim modeli, dizayni va ilmiy asoslari yoritilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari ta'limiy platformalarni nafaqat axborot yetkazib beruvchi vosita, balki talabalarning universal o'quv faoliyatini rivojlantiruvchi murakkab pedagogik tizim sifatida qarashni taqozo etadi. Mazkur talablar asosida ishlab chiqilgan "Mustaqil ta'lim" platformasi talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish va ularning universal o'quv faoliyati komponentlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion raqamli ta'lim muhiti hisoblanadi. "Mustaqil ta'lim" platformasi texnologik jihatdan modul tamoyiliga asoslangan, kengaytiriladigan va moslashuvchan tizim sifatida ishlab chiqilgan. Uning asosiy domeni – mi-mt.uz, bo'lib, bu portal to'liq Chirchiq davlat pedagogika universiteti (CHDPU) ehtiyojlari va o'quv dasturlariga moslashtirilgan. Platformaning server-qurilish arxitekturasini, foydalanuvchi interfeysi va backend tizimi zamonaviy web-standartlarga asoslangan bo'lib, mobil qurilmalarda ham qulay ishlaydi. U differensial yondashuv hamda shaxsiylashtirilgan o'qitish tamoyillariga asoslanib, mustaqil ta'lim jarayonini boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini kengaytiradi. Platforma funksional arxitekturasini ikki asosiy roldan iborat:

administrator – foydalanuvchilarni ro'yxatga oladi, guruhlariga biriktiradi, kurslarga ulaydi hamda login-parol tizimi, texnik qo'llab-quvvatlash va statistika yuritishni amalga oshiradi (na'munaviy login: mnishonova; parol: mnishonova);

o'qituvchi – fanga oid kurs va topshiriqlarni joylashtiradi, talabalar ishlarini baholaydi, izoh beradi hamda interaktiv baholash, monitoring va teskari aloqa orqali ta'lim jarayonini boshqaradi (na'munaviy login: nmuattar; parol: nmuattar).

Talaba esa platforma uchun ishlab chiqilgan mobil ilova (app.debug.apk) orqali platformaga bog'lanadi. Platforma o'qituvchi va talaba o'rtasidagi raqamli muloqotni tizimli yo'lga qo'yish orqali ta'lim jarayonini shaffof, nazorat qilinadigan hamda individual yondashuv asosida tashkil etishni ta'minlaydi. Mazkur yondashuv doirasida "Mustaqil ta'lim" platformasi talabalarda raqamli axborot bilan mustaqil ishlash, vaqt resurslarini boshqarish, o'zlashtirish jarayonini monitoring qilish, natijaga yo'naltirilgan mas'uliyatni shakllantirish hamda onlayn baholash orqali o'z-o'zini tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Platforma foydalanuvchilarning funksional roli (administrator, o'qituvchi, talaba)ga muvofiq login-parol orqali

tizimga kirishini nazarda tutib, identifikatsiya va axborot xavfsizligi tamoyillari asosida shaxsiy kabinetlar orqali boshqariladi. Autentifikatsiya moduli rolga mos vakolatlarni belgilab, platforma funksiyalaridan foydalanish chegaralarini aniqlashtiradi: administrator ro'yxatga olish va tizim parametrlarini boshqarishni amalga oshiradi, o'qituvchi esa topshiriqlarni yaratish, baholash, natijalarni tahlil qilish hamda teskari aloqani ta'minlash orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

1-jadval

Platformaning asosiy funksional komponentlari


Komponent	Funksional tavsifi
Administrator paneli	Guruhlar va foydalanuvchilarni tizimga kiritish, ularga login-parollarni biriktirish, fanlar va mavzularni foydalanuvchilarga taqsimlash funksiyasini bajaradi.
O'qituvchi paneli	Mustaqil ta'lim mavzularini tizimga yuklash, talabalar tomonidan yuklangan topshiriqlarni tekshirish, baholash va izoh berish imkonini ta'minlaydi.
Talaba interfeysi	O'quvchi tomonidan tanlangan mavzu asosida topshiriqni bajarish, tayyor ishni tizimga yuklash va o'qituvchi tomonidan yozilgan izohlar bilan tanishish imkonini beradi.
Mobil ilova	Har bir foydalanuvchi uchun moslashtirilgan interfeys orqali mobil qurilmalar yordamida platformadan foydalanish imkoniyatini yaratadi (mobil UX dizayn asosida).
Excelga eksport funksiyasi	Talabalar faoliyatini tizimli monitoring qilish, baholash natijalarini statistik tahlil qilish uchun Excel formatida eksport qilish imkoniyatini beradi.
Rad etilgan ishlar bo'yicha izohlar	O'qituvchi tomonidan rad etilgan topshiriqlarga berilgan izohlarni talaba alohida bo'lim orqali o'qib chiqishi va takomillashtirish uchun foydalanishi mumkin.

1-jadvalda platformaning asosiy komponentlari va ularning funksional tavsifi keltirilgan. Platformaning interfeysi foydalanuvchi uchun qulay va samarali muloqotni ta'minlaydi. Uning asosiy texnik imkoniyatlari quyidagilardan iborat: talaba individual login-parol orqali mobil ilova vositasida tizimga kiradi, tizim o'qituvchi tomonidan kiritilgan mustaqil ta'lim mavzularini avtomatik taqdim etadi, talaba topshiriqni tanlab, bajarib, tayyor faylni tizimga yuklaydi, o'qituvchi ishni ko'rib chiqib, baholaydi, izoh yoki taklif beradi, zarur hollarda rad etishi ham mumkin.

Har bir topshiriq interfaol baholash, izoh va refleksiv tahlilni qo'llovchi maxsus interfeys orqali bajarilib, samarali teskari aloqa tizimini yaratadi. 1-rasmda o'qituvchi interfeysi tasvirlangan.

Taklif etilgan "Platforma + Interfaollik + Kontent + O'quv harakatlari = Universal ta'lim muhiti" gibrid modeli asosida talabalarning universal o'quv faoliyatini rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqilgan (2-rasmga qarang). Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ushbu universal o'quv modeli informatika ta'limi jarayonida raqamli platformalar asosida mustaqil ta'limni tashkil etish,

o‘quvchilarning kognitiv, regulyativ, kommunikativ va shaxsiy kompetensiyalarini integrallashgan tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.




1-rasm. “Mustaqil ta’lim” platformasi ko‘rinishi

